



CONDITIONS PROVIDED TO CITIZENS WITH DISABILITIES IN UZBEKISTAN

Safar Bobojanov

PhD student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: disabilities, education system, inclusive education, efficiency, team.

Received: 15.12.24

Accepted: 17.12.24

Published: 19.12.24

Abstract: The article discusses the conditions of opportunities provided to citizens and youth with disabilities in our country, as well as important tasks such as creating comfortable living conditions for people with disabilities, ensuring their employment, providing opportunities for education and sports.

O'ZBEKİSTONDA İMKONİYATI CHEKLƏNGƏN FUQAROLARGA BERİLAYOTGAN SHART-SHAROITLAR

Safar Bobojanov

tayanch doktaranti

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan, ta'lim tizimi, inklyuziv ta'lim, samaradorlik, jamoa.

Annotatsiya: maqolada yurtimizda imkoniyati cheklangan fuqorolarga, yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar shart-sharoitlar hamda jismoniy imkoniyati cheklanganlar uchun qulay turmush sharoitini yaratish, ularning bandligini ta'minlash, ta'lim olish va sport bilan shug'ullanishlari uchun imkoniyat yaratib berish kabi muhim vazifalar ham maqolada joy olgan.

УСЛОВИЯ, ПРЕДОСТАВЛЯЕМЫЕ ГРАЖДАНАМ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Сафар Бободжанов

основной докторант

Джиззакский государственный педагогический университет

Джиззак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: инвалиды, система образования, инклюзивное образование, эффективность, коллектив.

Аннотация: в статье описаны условия и возможности, предоставляемые гражданам с ограниченными возможностями в нашей стране, а также важные задачи по созданию комфортных условий жизни для людей с ограниченными физическими возможностями, обеспечению их трудоустройства, созданию возможностей для получения образования и занятий полученным спортом.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda «Inson qadri uchun» g‘oyasi va joriy islohotlarning bosh tamoyili bo‘lgan «Inson –jamiyat –davlat» degan yondashuv barcha sohalardagi yangilanishlarning mazmun mohiyatiga chuqur singib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan keng qamrovli islohotlar mantiqiy ketma-ketlikda va samaradorlik bilan amalga oshirilmoqda. Bularning barchasi, o‘z navbatida, yurtimizda inson qadrini ulug‘lashga, inson manfaatlariga, shu jumladan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlagini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.

Ta’lim tizimini rivojlantirishning umumiy jihatlari o‘quvchilar uchun teng shart sharoit yaratish bilan bog‘liq jarayonlar orqali xarakterlanadi. Bu borada nafaqat ta’lim oluvchining moddiy turmush tarzi, balki uning jismoniy va ruhiy imkoniyatlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Ayniqsa ushbu yo‘nalishda imkoniyati cheklangan yoshlarga o‘quv jarayonini tashkil qilishda tegishli sharoit yaratish talab etiladi. Dunyo jamiyatida imkoniyati cheklangan bo‘lishiga qaramay, turli sohalarda ulkan cho‘qqilarni zabit etgan insonlar kam emas. Yuksak diniy maqomlarga erishgan yoki sportchi, mashxur san’atkor, hatto siyosiy yetakchi bo‘lgan shaxslar ham talaygina. Bularning barchasi ichki olamning, qalb va ruhning salomatligida. Yurtimizda ham mana shunday insonlar uchun, qulay shart sharoitlar, bepul va sifatli ta’lim olish uchun imkoniyatlar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib, jahon hamjamiyatida ijtimoiy dunyoqarashning o‘zgarishi natijasida inson omili ustuvor ahamiyat kasb etayotgan bir sharoitda imkoniyati cheklangan shaxslarga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgarib bormoqda. Ushbu davr mobaynida qabul qilingan xalqaro hujjatlar nogironlarni jamoatchilikdan ajratib qo‘yish emas, balki ularning jamiyat bilan integratsiyasini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy model g‘oyalarini o‘zida mujassam etdi. Bu o‘z navbatida imkoniyati cheklangan shaxslar muammolarini hal qilishning yangicha tamoyillarini ishlab chiqish, ularni jamiyatga moslashtirish, bandligini ta’minlash, ta’lim sifatini

oshirish, abilitatsiya va reabilitatsiya qilish hamda himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida maxsus tadqiqotlar olib borish zaruratini keltirib chiqardi.

2019 yil 29 apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmoniga ko‘ra ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, o‘qitish metodikalarini takomillashtirish, alohida yordamga muhtoj bolalarga ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash hamda mazkur toifa har bir bolaning inklyuziv ta’lim olishiga bo‘lgan huquqlarini ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilash kabi vazifalar belgilab olindi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasining rivojlanishi davlat siyosati umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi tamoyillari, inson huquqlari yuqori darajada ekanligi, ta’limning gumanistik mazmun mohiyati, har bir insonning bilim olishga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquqlarining ta’minlab berilganligi, — ta’lim olishdagi teng huquqlilikning kafolatlanishiga tayanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ta’lim sohasini rivojlantirish ustuvor yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

- ta’lim sohasidagi fuqarolarning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining kafolatlanganligi;
- ta’lim olishdagi tenglik, shu bilan birga, rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarga, ularning sog‘lig‘i hamda bilim qobiliyatlariga asosan, asosiy ta’limning barcha jabhalarida va qo‘sishmcha ta’lim olishda shart-sharoitlar yaratilganligi;
- ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan shaxslarga maxsus ta’lim olish uchun shart-sharoitlar yaratish va ularga pedagogik-psixologik hamda korreksion ko‘mak berish;
- shaxsning ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlarini, shuningdek shaxsni kamol topishida, yetuk kadrlarni tayyorlashda jamiyat bilan birga davlatning ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoitlarni yaratish

Dunyoning ko‘plab oliy o‘quv yurtlari va ilmiy markazlarida nogironlarga nisbatan munosabatning ijtimoiy model qonuniyatlarini amaliyatga tatbiq etish borasida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirila boshlandi. Jumladan, nogironlarning jamiyat bilan integratsiyalashuvi uchun teng imkoniyatlarni ta’minalashning ijtimoiy jihatlari oolib berildi, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun inklyuziv ta’limni amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatildi. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridayoq aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqasi vakillariga katta ahamiyat qaratila boshlandi.

Jumladan, (O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risidagi) Qonun qabul qilindi. Unda jismoniy imkoniyati cheklanganlar uchun qulay turmush sharoitini yaratish, ularning bandligini ta’minalash, ta’lim olish va sport bilan shug‘ullanishlari uchun

imkoniyat yaratib berish kabi muhim vazifalar belgilandi. Bu qonun asosida 100 dan ortiq meyoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi nogironlikning oldini olish, ularni ijtimoiy himoya qilish masalasi davlat miqyosidagi dolzARB vazifa darajasiga ko‘tarilganligidan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarda yaratilgan adabiyotlarda masalaning ijtimoiy jihatlariga ko‘proq ahamiyat qaratildi. Bu davrda tibbiyat, pedagogika, sotsiologiya, huquqshunoslik, iqtisod sohalarida imkoniyati cheklangan shaxslarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish mexanizmini takomillashtirishga oid ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Xususan, 2000-yillarga kelib, nogironligi bo‘lgan bolalarga ta’lim berishning zamonaviy usullarini qo‘llash va ularni sog‘lom bolalarga ijtimoiy moslashtirishga g‘tibor berila boshladi. M.A.Usmanovning[1] tadqiqotida asosiy g‘tibor keksalar va imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy muhofaza qilishning huquqiy aspektlariga qaratilgan. Unda sobiq sovet davlati hamda mustaqillikning dastlabki yillaridagi ijtimoiy himoya siyosatiga oid ma’lumotlar yoritilgan bo‘lib, keyingi davrlarda yuz bergen o‘zgarishlar qamrab olinmagan.

Hozirgi kunda jahon miqyosida nogironlar masalasiga mutlaqo yangicha yondoshuv va qarashlar asosida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Xususan, inklyuziv ta’lim masalasi xorijiy davlatlarda eng dolzARB masalalardan biriga aylangan. Pedagoglar bilan bir qatorda, Rossiya[2] sotsiloglari va Yevropa[3] politologlari ham bu masalaga jiddiy qiziqish bilan qaramoqdalar. Ular o‘z tadqiqotlarida inklyuziv ta’limning nogironligi bo‘lgan bolalarni jamiyatga moslashtiruvchi eng muhim omil ekanligini ko‘rsatishga harakat qilganlar.

Ta’lim va reabilitatsiya muhiti - bu ta’lim muassasasida nogironning alohida ehtiyojlariga moslashtirilgan, unga kasbiy ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlaydigan, individual reabilitatsiya qilish uchun sharoit yaratadigan, ma’lumotlar va ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatini yaratadigan tashkiliy, uslubiy, texnik va texnologik muhit hisoblanadi. **Ta’lim muassasasida ta’lim va reabilitatsiya muhitini yaratishning asosiy yo‘nalishlari:**

- ta’lim texnologiyalarini shakllantirish;
- ta’lim va reabilitatsiya muhitini arxitektura, rejalshtirish va texnik jihatdan tartibga solish, shu jumladan: to‘siksiz muhitni shakllantirish, o‘quvchilarni individual, guruh va sinfda yordamchi texnik vositalar, ularning mavjud sog‘lig‘ining patologiyalarini qoplashga yordam beradigan asboblar bilan ta’minalash;
- tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya, shu jumladan: individual reabilitatsiya dasturini amalgaloshirish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘z vaqtida tibbiy-ijtimoiy ko‘rikdan o‘tkazish, psixologik yordam, ijtimoiy-huquqiy maslahatlar, bandlikka ko‘maklashish, ta’lim bilan bog‘liq ijtimoiy, maishiy va ijtimoiy-madaniy muammolarni hal qilish.

Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar

- professor-o‘qituvchilar tomonidan inklyuziv ta’lim tamoyillarini qabul qilish va professor-o‘qituvchilarning nogironlar uchun asosiy kasbiy ta’lim dasturlarini amalga oshirishga tayyorligi;
- alohida ta’limga muhtoj talabalar bilan ishlaydigan o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimini yaratish;
- o‘quv jarayonini adabiyot va dasturiy ta’minot bilan ta’minlash;
- nogiron o‘quvchilarda faol mustaqil faoliyatga tayyorlikni shakllantirish.

Tashkiliy shart-sharoitlar - bu mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning o‘quv jarayonini maqsadli boshqarishni ta’minlaydigan o‘zaro bog‘liq holatlar majmui.

Asosiy tashkiliy shartlarga quyidagilar kiradi:

- huquqiy va mg‘yoriy ta’minlash (shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslarni qabul qilish, tayyorlash va qayta tayyorlash bo‘yicha ichki mg‘yoriy-huquqiy baza);
- ta’lim jarayonini moliyaviy ta’minlash;
- o‘quv jarayonini moddiy-texnik ta’minlash;
- ta’lim jarayonini kadrlar bilan ta’minlash;
- o‘quv jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta’minlash;
- boshqaruv hujjatlari tizimining mavjudligi.

Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ta’limi mazmunini ishlab chiqishda asosiy muammolardan biri bu maxsus ta’limni rivojlantirishdir.

Zamonaviy mehnat bozorida eng ko‘p talab qilinadigan, nogironlarni o‘qitish uchun tavsiya etilgan kasblarning taxminiyl ro‘yxatini, ularning rivojlanish buzilishlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlash dolzarb ko‘rinadi.[4]

Ta’lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal qilinishi talab etiladi:

- ta’lim muassasasida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarning ta’lim olishlari uchun zaruriy korreksion sharoitlarni yaratish, ularning imkoniyatiga yo‘naltirilgan umumta’lim dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruhiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;
- o‘quvchilarning ta’limdagagi tenglik huquqini kafolatlash;
- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni oilalardan ajralmagan holda yashash huquqini ruyobga chiqarish;
- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga nisbatan — do‘stona va mehr-muxabbatli munosabatni shakllantirish.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi vazifalarni to‘laqonli amalgga oshirishda eng birinchi galda quyidagilarga g‘tibor qaratish lozim:

Imkoniyati cheklangan bola ham barcha bolalardek bola hisoblanadi va u tan olinishi, hurmatga sazovor bo‘lishga haqli, shuning uchun ularni nuqsoni bilan atalishi nomaqbul holat hisoblanadi.

Ruhiy-jismoniy rivojlanishi va ta’lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, imkoniyatlari cheklangan har bir bolaning sog‘lom bolalar bilan birgalikda tarbiya va ta’lim olishining zarur shakllarini tanlashni ta’minalash. Bolaning ta’lim tizimiga jalb qilinishining biror ko‘rinishi u uchun oddiy va foydali bo‘lishi darkor, ayni paytda bu inklyuziv ta’lim maromida rivojlanayotgan tengdoshlarining sifatli ta’lim olishiga halaqit bermasligi lozim.

Yurtimizda qabul qilingan va amalda qo‘llanilayotgan me’yoriy hujjatlar asosida imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarni ham umum ta’lim muassasalarida teng huquqlilik asosida o‘qitish va tarbiyalash masalasi huquqiy jihatdan kafolatlandi. Chunki alohida ehtiyojli bolalar inklyuziv ta’limining samarali tashkil etilishi natijasida:

- imkoniyati cheklangan farzandlari mayjud bo‘lgan oilalarning moddiy va ma’naviy muammolariga barham beriladi va mahallarda ajratish iskanjasidan qutulishga imkon yaratiladi;
- imkoniyati cheklangan bolalarni maktablar va jamoatchilik orasida kamsitishlarning oldi olinadi, bolalar o‘rtasida tenghuquqlilik ta’milanadi, do‘stona munosabatlar shakllanadi;
- maxsus ehtiyojli bolaning o‘z oilasi va jamiyat davrasida bo‘lishdek ulkan imkoniyat yaratiladi;
- jamiyatning yanada inklyuzivlashuviga olib keladi;
- barcha uchun ta’lim sifati yanada yaxshilanadi;
- imkoniyati cheklangan bolalar sog‘lom tengdoshlari orasida tabiiy sharoitlarda yashash va mehnat qilishga moslashadilar;
- imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy jamiyatga erta va samarali moslashishlari ta’milanadi, ya’ni jamiyatda boshqalar ko‘magiga qaramlar soni kamayadi.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganlaridek: «Insonlarning nogironlarga nisbatan munosabatini o‘zgartirish, atrofdagilarni ularning jamiyatda to‘liq va teng huquqli ishtiroki haqida xabardor qilish nogironlarning dolzarb muammolarini hal etishda o‘ta muhim va birinchi navbatdagi qadam hisoblanadi». Bu esa O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosatini tarixiy nuqtai nazardan tadqiq qilish, sohada olib borilayotgan islohotlarning mohiyatini ochib berish zaruratini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmonova M.A. Uzbekistonda keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy-xuquqiy asoslari. Yurid. fan. dokt. diss. ... – Toshkent, 1995. – 165 b.
2. Малофеев Н.Н. Современный этап в развитии системы специального образования в России: результаты исследования как основа для построения программы развития // Альманах Института коррекционной педагогики РАО. — Вып. 1. - 2000. — 56 с.; Скок Н.И. Биосоциальный потенциал лиц с ограниченными возможностями и социальные механизмы его регуляции // Социологические исследования, 2005. — №4.;
3. Ярская-Смирнова, Е.Р. Социальное конструирование инвалидности // Социологические исследования, 1999. — № 4. - 45 с.;
4. Thomas G. The Making of the Inclusive School / J. Thomas., P. Walker, J. Webb. — London and New York: Routledge Falmer, 1998; Florian L. Special Education and School Reform in the United States and Britain / L.